

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BOTIR BOYMETOV

QALAMTASVIR

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi tomonidan oliy
o'quv yurtlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

**“MUSIQA” nashriyoti
TOSHKENT
2006**

85.15

B 81

Nizomiy nomidagi TDPU ning Ilmiy kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar - N. Abdullayev, professor,
N. Tolipov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
S. Abdirasilov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

Boymetov Botir.

Qalamtasvir: Oliy o'quv yurtlari uchun darslik / O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: Musiqa, 2006 - 216 b.

BBK 85.15 ya73

Qalamtasvir nomli darsligining I-qismi pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda tasviriy san'atning asosi hisoblangan qalamtasvir fani bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlar mazmuni yoritilgan. Xususan, kitobdan qalamtasvirning nazariy asoslari, tasviriy san'atda perspektiva, kompozitsiya qonunlari, chiziqli konstruktiv qurilish, yorug'-soya qonuniyatlari, odam bosh suyagi va muskullarining plastik anatomiyasi, badiiy ta'limda qalamchizgi bajarishning o'ziga xos xususiyatlari va boshqalar o'rin olgan. Darslikda berilgan vazifalar talabalarning bilim va malakalarini hisobga olgan holda oddiydan-murakkabga usulida ishlab chiqilgan. Kitobdan pedagogika oliy o'quv yurtlari talabalari bilan bir qatorda kasb-hunar kolleji o'quvchilari hamda tasviriy san'at bilan shug'ullanuvchi barcha mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Qat'iy buyurtma.

№ 473–2006

Alisher Navoiy nomidagi

O'zbekiston Milliy kutubxonasi

ISBN 978-9943-307-00-1

© O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Musiqa" nashriyoti, 2006-y.

M U Q A D D I M A

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jamiyatimizni iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan jahonning eng rivojlangan mamlakatlari qatoridan o'rin olishida ijobiy natijalar bermoqda. Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" muhim tarixiy hujjat bo'lib, unda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, bu tizimni dunyoning ilg'or, demokratik davlatlari darajasiga yetkazish va yosh kadrlarni yuksak ma'naviy-axloqiy ruhda, chuqur bilim egasi qilib tarbiyalash maqsadi qo'yilgan.

Keyingi vaqtda boshqa sohalarda bo'lgani kabi, oliy ta'lim tizimida ham ko'pgina amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, pedagogika oliy o'quv yurtlarining badiiy grafika fakultetlarida yosh pedagog-rassomlarni tayyorlash bo'yicha Davlat ta'lim standartlari, yangi o'quv rejalari, dasturlari tuzilmoqda, o'quv qo'llanma, darslik va metodik tavsiyalar yaratilmoqda. Respublika oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlarida yoshlarga milliy san'at namunalarini o'qitishning ilmiy asoslangan yangi shakli, metodlari ishlab chiqilmoqda hamda yoshlarni badiiy va estetik jihatdan tarbiyalab, voyaga yetkazish borasida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda tasviriy san'at, xususan, qalamtasvir fani alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan maxsus fanlarning chuqur va asosli bo'lishini taqozo etadi, pedagog, olim va rassomlar zimmasiga yuksak mas'uliyat yuklaydi.

Qalamtasvir predmeti badiiy grafika fakultetlarida o'qitiladigan barcha maxsus fanlarning asosi hisoblanadi va ular o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlaydi. Qalamtasvir borasida yetarli bilim va malakani egallamay turib, talaba kompozitsiya, rangtasvir, haykaltaroshlik, xalq amaliy san'ati va boshqa mutaxassislik fanlarini yuqori darajada o'zlashtira olmaydi.

Hozirgi vaqtda pedagogika universitetlari va institutlari badiiy grafika fakultetlarida qalamtasvir fanini o'qitishning nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqish va ilmiy jihatdan asoslangan yangi yo'li, shakli, mazmuni hamda metodlarini takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Tasviriy san'at fanini davlat standartlari asosida o'qitishning istiqbol yo'llarini ishlab chiqish.

2. Tasviriy san'at ixtisosligi bo'yicha oliy o'quv yurtlarida mutaxassis rassom-pedagoglarni tayyorlovchi muassasalar ish faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etish.

3. Mahalliy manbalardan foydalanshni keng yo'lga qo'yish orqali talabalarning yuqori malakali, Vatanga sadoqatli, milliy hamda jahon xalqlari san'atini mukammal biladigan, o'tmish madaniyatimizni sevadigan mutaxassislar bo'lib yetishishlarini ta'minlash.

4. O'rta maxsus, kasb-hunar kollejlari uchun qalamtasvir fanini nazariy va amaliy jihatdan yuksak darajada biladigan, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan qurollangan pedagog kadrlarni tayyorlash.

Mazkur darslik Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti badiiy grafika fakultetida o'tkazilgan ko'p yillik tajribas-inov mashg'ulotlari asosida yaratilgan. Unda qalamtasvirning maqsad va vazifalari, tasvirlash metodlari tarixidan lavhalar, tasviriy san'at, xususan, qalamtasvirning asosiy qonun-qoidalari, o'quv qalamtasviri kabi masalalar o'rin olgan. Pedagogika oliy o'quv yurtlari 1 va 2-kurs bakalavriat talabalariga mo'ljallangan ushbu darslikdan tasviriy san'at sohasi mutaxassislari, kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, metodistlar ham foydalanishlari mumkin.

I BOB

QALAMTASVIR – TASVIRIY SAN’ATNING ASOSI

I.1. QALAMTASVIR VA UNING MAQSAD–VAZIFALARI

Qalamtasvir – barcha tasviriy san’at turlarining asosi hisoblanadi. Rassom tasviriy san’at turining qaysi birida ijod qilishidan qat’iy nazar, qalamtasvirga asoslanadi. U o’zining kuzatishlari, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarini avval qalamda dastlabki chizgilar bilan ifodalaydi. San’at asarini yaratishda ushbu qoramalar rassomga yordamchi manba bo’lib xizmat qiladi.

Rassom u yoki bu kartinasini yaratishni qalamda chizishdan boshlaydi. Keyin asarga ranglar beriladi va u tomoshabinga estetik huzur baxsh etadi. Boshqacha qilib aytganda, qalamtasvirsiz hech bir rassom o’z asarini yetuk holga keltira olmaydi.

Qalamtasvir mustaqil ravishda tugallangan san’at asari ham bo’lishi mumkin. Tush, sangina, pastel, sous, qalamda yaratilgan ko’plab kartinalar jahonning turli san’at muzeyi va ko’rgazmalaridan joy olgan.

Qalamtasvir mashg’ulotlari ko’rib-kuzatib to’g’ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo’l, ong va sezgi organlarini rivojlantirishda nafaqat bo’lajak rassomga, balki turli kasb sohasidagi kishilarga ham zarurdir.

Uyg’onish davrining buyuk rassomi va olimi **Leonardo da Vinchi** “**Rangtasvir qonunlari**” nomli asarida ta’kidlaganidek, *yoshlar o’zlarini ilm-fan, tasviriy san’atda sinamoqchi bo’lsalar, avvalo, rasm chizishni mukammal bilmoqlari lozim.*

Qalamtasvir bakalavriyat talabalariga I-IV kurslarda nazariy va amaliy mashg’ulotlar orqali o’rgatiladi. Shuni ta’kidlash kerakki, amaliy mashg’ulotlar bilan bir qatorda talabalarga nazariy bilim berish g’oyat muhim. Bu bilim bo’lajak pedagoglarning institutni tugatgandan so’nggi ilmiy va ijodiy faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Borliqdagi narsa va shakllarni realistik tasvirlash talabaga amaliy bilim va ko’nikma beribgina qolmay, balki uning estetik didini o’stirish, dunyoqarashini kengaytirish uchun juda muhimdir. Realistik tasvir san’ati yosh rassomlarning borliqni haqqoniy obrazlarda ifoda etish mahoratini rivojlantirishda ham katta ahamiyatga ega.